

Amir Temur o'g'itlarining tarbiyaviy ahamiyati. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari

Dilsora Sevindikova
Maftuna Saidmurodova
ToshDO'TAU

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur o'g'itlarining tarbiyaviy ahamiyati. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari to'g'risida batafsil ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, o'g'it, tarbiya, Alisher Navoiy, pedagogika

The educational value of Amir Temur's teachings. Pedagogical views of Alisher Navoi

Dilsora Sevindikova
Maftuna Saidmurodova
TashSUULL

Abstract: In this article, the educational value of Amir Temur's teachings is discussed. Detailed information about the pedagogical views of Alisher Navoi is provided.

Keywords: Amir Temur, training, education, Alisher Navoi, pedagogy

Bizga o'tmishdan ma'lumki Amir Temur siyosatlari adolatli va yurti tinch, xalqi farovon yashagan. Chunki ular tutgan siyosatlari shunday edi: davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajardim deb ta'kidlaydilar.

Yani bunda nima demoqchilar to'qqiz kengash, to'qqizta vazir bo'lsa, ulamo bo'lsa, ulamo bo'lsa ularga ularga quloq tutganman, ularning fikrlari bilan ish ko'rganman. Bir ulushini esa qilich bilan boshqarganman, shoh ham bo'lganman deyilgan.

Yana aytadilarku:

Kengash ikki turli bo'lur: biri til uchida aytilgan, ikkinchisi yurakdan chiqqan. Til uchida aytilganini shunchaki eshitardim. Yurakdan aytilgan maslahatni esa qalbi qalbimning qulog'iga qo'yardim va dilimga joylardim. Amir Temur shohlik faoliyatida ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan birga madaniyat va ilm-fanning rivojiga alohida e'tibor berganlar. Turli shaharlarda obodonchilik ishlarini olib borganlar. Shaharlarda ilm maskanlarini ko'paytiradilar. Olimlar, din ulamolari bilan muloqotlar

olib boradilar. Amir Temur yana davlat ishlarida islomga tayanib musulmonlarga quloq tutadilar, islom dinining ulug' namoyondalarini e'zozlab, hurmat qiladi va ularning gaplariga kirib ish tutadilar

Umuman olganimizda, Amir Temur tarix oldidagi xizmati benihoyat kattadir. Amir Temur kuchayib ketayotgan feodal tarqoqlikka barham berib, katta bir xalqni atrofiga yig'adi. Buning natijasida Amir Temur olib brogan siyosat sababli davlatda zirotchilik, hunarmandchilik, savdo sotiq va madaniyat rivojlanadi. Tarixdan ma'lumki Amir Temur o'sha davrning eng qudratli podshohi hisoblangan. Boyazid bilan kurashadi va bu urushda Amir Temur g'alaba qozonadi, lekin ularning xalqiga ozodlik beradi. Amir Temur bir davlat ishlari emas, balki adabiyot sohasida ham o'zini ko'rsata bilgan.

Amir Temur "Temur tuzuklari" asari bilan ko'rsak bo'ladi. Asar 2 qismdan iborat, birinchi qismda Amir Temurning tarjimai holi, ijtimoi-siyosiy faoliyati, uning Movarounahrda markaziy hokimyatni qo'lga kiritishi siyosiy tarqoqlikka barham berishi, markazlashgan davlat tuzishi haqida aytib o'tigan ekan. Yana 27ta davlatni birlashtirgan, adolat bilan boshqarish haqida aytilgan. Turli ishtimoiy tabaqalarga nisbatan qanday munosabatda bo'lganligi haqida aytib o'tilgan. Asarning 2 qismda jahongirning farzandlariga atalgan.

Amir Temur umr bo'yi quyidagi o'n ikki tamoyilga amal qilgan:

- Har yerda va har vaqtda islom dinini qo'llab-quvatlagan.
- Davlat ishlarini kengash asosida boshqargan.
- Salatanat ishlarini murosayu madora orqali yurgizgan.
- Davlat ishlarini qonun-qoida va tuzuklarga asoslanib boshqargan.
- Amirlar va sipohiyarga hurmat ko'gazgan.
- Adolat va insofga tayangan.
- Fuqarolarga izzat-hurmat ko'rgazgan.
- Azmujazm bilan ish tutgan.
- Raiyat ahvolidan doimiy ogoh bo'lgan.
- Turku tojik, arabu ajamning turli toifalariga hurmat ko'rsatgan.
- Do'stlarni unutmagan va ularga yordam bergan.
- Har joy da sipohiyarni hurmat qilgan.

1. Din va shariatga doir.
2. Davlat. va uni idora etishga doir.
3. Kengash o'tkazishga oid.
4. Podsho va vazirlarga doir.
 1. Adolat va adolatsizlik.
 2. So'zva ishonch birligi.
 3. Do'st va dushmanlik.

Alisher Navoiyning pedagogikaga bo'lgan qarashlari:

Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalarida oilyjanoblik va mardonavor ruhni, vafodorlik-ni insondagi barcha imkoniyatlar va ma'naviy kuchlarning faol namoyon bo'lishi yo'llarini ko'rsatganlar. Alisher Navoiyning yozishicha, faqat inson Allohning ilm hikmatiga faqat inson yarashadi deb aytadilar, shuning uchun boylik insonga hadya qilingan.

Odamiy ersang, demagil odamiy

Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami.

Alisher Navoiy shunday deganlarki yani chin insonning xalq g'amidan boshqa g'ami bo'lmasligi kerak deb takidlaydilar. Alisher Navoiy ko'plab mablag'ini xayrli ishlarga, shu jumladan jamoat qurilishlarga sarf qilganlar. Alisher Navoiyning o'qituvchi to'g'risidagi fikrlari. Mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallas katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa kerak.

Alisher Navoiy "Muruvvat va saxovat" to'g'risida.

Saxovat insoniyat bog'ining boqiy ildizidir, insoniyat esa uning mevasi. Muruvvatni barcha insonlar qilishi shart. Shoir nazdida muruvvat odamgarchilik yuzasidan qilingan yaxshilik, saxovat, himmatdir, o'zida bor narsalarni, muhtojlarga berish, yemay yedirish, kiymay kiydirishdir. Futuvvat esa barchaga yaxshilik ko'rsatish, ammo evaziga hech narsa talab va ta'ma qilmaslikdir.

Muruvvat borcha bermoqdur, yemak yo'q,

Futuvvat borcha qilmoqdur, demoq yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunov Y., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi-Toshkent, 1997.
2. Munavvarov A. Pedagogika.-Tshkent, 1996.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent, 2008.
4. O'rinova P. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiya. Scientific progress. Vol.3, issue 4. 2022.
5. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
6. Аслонов И. (2022) «Бобурнома» бадиий – психологик тасвир муаммоси объекти сифатида. O'zMU xabarlar. Toshkent – 2022. №1/5.
7. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) The Problem of Artistic - Psychological Image in Boburnoma. Eurasian Scientific Herald. Volume 7| April, 2022. ISSN: 2795-7365.

8. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) Appearance of Zahiriddin Muhammad Bobur in "Boburnoma" Central Asian journal of theoretical and applied sciences Volume: 03 Issue: 06 | Jun 2022 ISSN: 2660-5317.

9. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES,3, 710-719. (2023)

10. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fanini oʻqitishda inovatsialar. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES,3, 734-745 (2023).

11. Sattorov V.N (2022). Methods of shaping the culture of the teacher. Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning. vol 3 no.02. 36-41 (2022). ISSN (online): 2776-0995

12. Sattorov V.N (2023). Indicators of Pedagogical Competence and its Effectiveness. International Journal of Inclusive and Sustainable Education. vol 2 no.02. 86-88. (2023). ISSN(e): 2833-5414

13. Arapbaeva Damegul Kurbanovna, Amirova Bibisara Aubakirovna. Personal Psychological Adaptation and its Characteristics. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. VOL. 2. NO 2. 2023. -P. 68-70. sa tarbiyani yoshlikdan toʻgʻri nerish kerak.